# Xalq so'zi

O'zbekiston — kelajagi buyuk davlat

**2023-YIL — INSONGA E'TIBOR VA SIFATLI TA'LIM YILI**

1991-yil 1-yanvardan chiqa boshlagan ● WWW.XS.UZ ● E-mail: Info@xs.uz ● 2023-yil 8-noyabr, № 237 (8580) Chorshanba

Saytimizga o'tish uchun QR-kodini telefoningiz orqali skaner qiling.


# O'ZBEKISTON PREZIDENTI QATARNING SOBIQ BOSH VAZIRINI QABUL QILDI



O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Matbuot xizmati surati.

**O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 7-noyabr kuni Qatar Davlatining sobiq Bosh vaziri, ushbu mamlakatdagi qator yirik investitsiya va sanoat xoldinglari asoschisi Hamad bin Jassim Ol Soniyni qabul qildi.**

Qatar delegatsiyasi oliy darajadagi kelishuvlar doirasida yurtimizda bo'lib turibdi.

O'zbekistonda istiqbolli investitsiya loyihalarini amalga oshirish masalalari ko'rib chiqildi.

Buxoro shahrida zamonaviy mehmonxona majmuasi, Toshkent shahrida yirik logistika markazi, savdo va turarjoy majmuasini qurish, yuqori tezlikda harakatlanishga mo'ljallangan avtomobil va temir yo'llar infratuzilmasini barpo etish, aeroportlarni modernizatsiya qilish, shuningdek, energetika, metallurgiya, to'qimachilik sanoati, chorvachilik, qurilish materiallarini ishlab chiqarish va boshqa loyihalar shular jumlasidan.

Ushbu loyihalarni moliyaviy qo'llab-quvvatlash uchun qo'shma fond tashkil etish rejalari ham muhokama qilindi.

Loyihalar qo'shma "Yo'l xaritasi" asosida amalga oshiriladi.

**O'zA.**

Biz va jahon

# IHT DOIRASIDAGI TASHABBUSLAR

## O'ZARO ISHONCH VA HAMJIHATLIK MUHITINI MUSTAHKAMLAMOQDA

*Iqtisodiy taraqqiyotni ta'minlashda nafaqat mavjud ichki zaxiralardan, balki xalqaro iqtisodiy tashkilotlar resurslaridan foydalanish ham muhim omildir. Shu ma'noda, bu kabi tashkilotlar bilan hamkorlikni kengaytirish tashqi siyosatimizning ustuvor yo'nalishlaridan bo'lib kelayotgani bejiz emas.*




1985-yilda Turkiya, Eron va Pokiston tomonidan asos solingan Iqtisodiy hamkorlik tashkiloti (IHT) ham ana shunday tuzilmalardan biri bo'lib, unga 1992-yil O'zbekiston va Markaziy Osiyoning barcha davlati a'zo bo'lib kirgandi. IHT hududi dunyoning eng boy mintaqalaridan biri hisoblanadi. Unda turli sohalarda, xususan, transport, energetika, sayyohlik sektorlarida ko'p tomonlama hamkorlik qilish uchun keng imkoniyatlar va qulayliklar mavjud.

Iqtisodiy hamkorlik tashkiloti taraqqiyot uchun muhim ahamiyat kasb etadigan infratuzilmalar nuqtayi nazaridan ham ijobiy ko'rsatkichlarga ega. Xususan, tashkilotga a'zo davlatlar 8 million kvadrat kilometr maydonni qamrab olgan yurtlar bo'lib, Osiyo qit'asining 20 foizini, jahonning 6 foiz qismini tashkil etadi. Shuningdek, IHT mintaqasi 500 milliondan ko'proq aholiga ega bo'lib, yirik imkoniyatlarga ega iste'mol bozori hisoblanadi. Bu davlatlar o'rtasidagi o'zaro tovar aylanmasi esa 600 milliard dollarga yetadi.

Ammo qo'shma investitsiyalar kiritish uchun qulay sharoitlar mavjudligiga qaramasdan, bu boradagi ishlar yaqin paytlargacha IHTning eng zaif tomoni bo'lib keldi. Bu yo'lda bir qancha to'siqlarga duch kelindi. Siyosiy keskinliklarning mavjudligi va shu tufayli saqlanib qolayotgan taranglik hamda tashkilotga a'zo bo'lgan ayrim davlatlarda yuzaga kelgan ichki muammolar shular jumlasidandir.

Iqtisodiy hamkorlik tashkilotining nufuzini oshirish faqat uning imkoniyatlari va manbalaridan to'la foydalanish orqali ro'yobga chiqadi. Buning uchun mintaqada umumiy xavfsizlik va barqarorlikni ta'minlash, o'zaro jipslashishga qaratilgan sa'y-harakatlarni yanada kuchaytirish zaruriy shart hisoblanadi.

➔ 2

Muloqot

# JAHON BANKI VAKILLARI BILAN UCHRASHUV

*Kecha Oliy Majlis Senatida Jahon banki vakillari bilan uchrashuv bo'lib o'tdi.*

*Ma'lumot o'rnida ta'kidlash lozim, o'tgan yili ushbu nufuzli xalqaro moliya tashkiloti direktorlar kengashi mamlakatimiz bilan 2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan hamkorlik dasturini tasdiqlagan edi.*

Bugungi kunda Jahon banki tomonidan mamlakatimizda kambag'allikka qarshi kurashish, tadbirkorlik loyihalarini rivojlantirish va moliyalashtirish strategiyasini ishlab chiqish, qishloq infratuzilmasi va o'rta shaharlarni modernizatsiya qilish, xotin-qizlar bandligi hamda yoshlarning kasbiy ta'limi, sog'liqni saqlash strategiyasini amalga oshirish bo'yicha keng ko'lamli loyihalar yo'lga qo'yilgan.

Xususan, bankning 2,7 mln. AQSH dollari miqdorida grant mablag'lari hisobidan ayollar iqtisodiy imkoniyatlarini qo'llab-quvvatlash, jumladan, Farg'ona viloyatining Furqat, Uchko'prik, Yozyovon, Qo'shtepa hamda Jizzax viloyatining Yangiobod, Baxmal, Forish va Zomin tumanlarida "ayollar daftari"ga kiritilgan chekka qishloqlardagi 3500 nafar xotin-qizni tadbirkorlik ko'nikmalariga o'qitish, 350 nafarining biznes rejalarini moliyalashtirish choralarini ko'rish mo'ljallangan.

Tadbirda Jahon banki tomonidan inson kapitalini rivojlantirish, gender tenglikni ta'minlash borasida hamkorlikda amalga oshirilayotgan loyihalar muhokama qilindi.

Muloqotga ushbu loyihalarga daxldor vazirlik va idoralar vakillari hamda Jahon banki mutaxassislari ham jalb etildi.

Aytilganidek, mazkur moliya tashkiloti vakillari tomonidan mamlakatimizda qator tadqiqotlar olib borildi va O'zbekistonda gender baholash natijalari bo'yicha xulosa tayyorlandi. Unda 4 yo'nalish, ya'ni gender me'yorlari va ijtimoiy kutilmalar, inson kapitali, iqtisodiy imkoniyatlar hamda ayollar erkinligini oshirish bo'yicha mamlakatimizda ro'yobga chiqarilayotgan ishlar o'rin olgan.

➔ 2

Aksiya

# ILK BOR BARQAROR RIVOJLANISH MAQSADLARI OYLIGI O'TKAZILMOQDA

*Joriy yilning noyabr oyida Oliy Majlis palatalari tomonidan Vazirlar Mahkamasi va xalqaro tashkilotlar bilan birgalikda yurtimizda ilk marotaba Barqaror rivojlanish maqsadlari oyligini o'tkazish rejalashtirilgan edi.*

Bundan maqsad — mamlakatimizni barqaror rivojlantirish sohasidagi milliy maqsad va vazifalar ijro etilishi ustidan parlament nazoratini olib _as hu_, bu borada hukumatga ko'maklashish, aholining xabardorlik darajasini ko'tarish, taraqqiyot maqsadlariga erishishda parlamentlararo aloqalarni kengaytirish hamda mazkur maqsadlarning "O'zbekiston — 2030" strategiyasi doirasida amalga oshirilishi belgilangan islohotlar bilan hamohangligini ta'minlashdan iborat.

E'tiborlisi, oylik davomida har bir milliy maqsad bo'yicha xalqaro ekspertlar ishtirokida 24 ta anjuman tashkil etiladi va ularda milliy maqsadlar bilan birga, BMTning Yuqori darajadagi siyosiy haftaligi doirasida o'tkazilgan tadbirlarda muhokama qilingan dolzarb masalalar ko'rib chiqiladi.

Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tashabbusi bilan 2022-yil 14-dekabrda qabul qilingan BMT Bosh Assambleyasining "Barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishni jadallashtirishda parlamentlar rolini kuchaytirish to'g'risida"gi rezolyutsiyaning hamda milliy maqsadlar doirasida olib borilayotgan islohotlarning mazmun-mohiyatini targ'ib qilishga bag'ishlangan brifing va matbuot anjumanlari tashkil etiladi.

Oylik doirasida Toshkent shahrida Barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishda parlamentlararo hamkorlik bo'yicha II global forum ham bo'lib o'tadi.

Umuman olganda, Barqaror rivojlanish maqsadlari oyligi va II global forumda xorijiy davlatlar parlamentlari, parlamentlararo tashkilotlar rahbarlari va a'zolari, yoshlar parlamentlari, davlat organlari, xalqaro va nodavlat notijorat tashkilotlari, ommaviy axborot vositalari vakillari, ilmiy-tadqiqot muassasalari ekspertlari (jami 500 nafardan ortiq) an'anaviy va onlayn tarzda qatnashishi kutilmoqda.

➔ 2

# Polshada yangi O'zbekistonning savdo-iqtisodiy, investitsiyaviy va transport-logistika salohiyati taqdim etildi

*Mamlakatimiz elchixonasi tomonidan Polsha — Osiyo Savdo-sanoat palatasi bilan birgalikda "O'zbekiston va Polsha o'rtasida savdo-iqtisodiy, investitsiyaviy va transport-logistika sohalarida hamkorlik imkoniyatlari" mavzuida davra suhbati tashkil etildi.*

**Hamkorlik**

Unda Polsha-Sharq hamkorligi uyushmasi, "SCHNEIDER GROUP", "Omida", "ESA Logistics", "Symlog", "Stokota", "Jolante Kramer emole-express", "Border Servis", "Marek Loos", "Transport Manager", "PFC" va boshqa nufuzli kompaniyalar rahbariyati qatnashdi.

Mamlakatimiz diplomatik missiyasi xodimlari tomonidan o'tkazilgan taqdimotda O'zbekiston — Polsha hamkorligining holati va istiqbollari, yangi O'zbekistonning savdo-iqtisodiy, investitsiyaviy va transport-logistika salohiyati to'g'risida batafsil ma'lumot berildi.

Polsha sobiq Bosh vazirining o'rinbosari va palata prezidenti Yanush Pexochinskining qayd etishicha, Polshada O'zbekistondagi jadal o'zgarishlar va rivojlanish jarayonini diqqat bilan kuzatishmoqda.

➔ 2

# JAMIYATNING BEQIYOS KUCHI VA BOYLIGI

*Yoshlar — har bir davlatning siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy boyligi, yangi g'oyalarni amalga tatbiq etadigan beqiyos kuchi hamda taraqqiyoti manbai. Shu sababli taraqqiyparvar jamiyatlarda yoshlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, ular uchun shart-sharoitlar yaratishga katta e'tibor qaratiladi.*

**Mushohada**

Ushbu masalaning bunchalik dolzarb bo'lishiga boshqa sabablar ham bor. Gap shundaki, hozirgi paytda butun sayyoramizda 70 milliondan ortiq yoshlar muqim ish joyiga ega emas, bandligi ta'minlanganlari ham og'ir mehnat sharoitida yoki norasmiy sektorda faoliyat olib borishga majbur bo'lmoqda. Oqibatda aholi daromadlari kam yoki o'rta hisoblangan mamlakatlarning 150 million nafardan ortiq yoshlari kambag'allikda umr kechirayotir.

Bu boradagi vaziyat Markaziy Osiyoda ham maqtarli emas, ya'ni mintaqa bo'yicha 16 foizdan ortiq yoshlar bandligi ta'minlanmagan.

Shu bois Prezident Shavkat Mirziyoyev tomonidan xalqaro maydonda yoshlar masalasiga doir qator tashabbuslar ilgari surib kelinyapti. Masalan, Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasi 72-sessiyasida BMTning Yoshlar huquqlari to'g'risidagi xalqaro konvensiyasini qabul qilish tashabbusi bildirilgandi. Bu tashabbus xalqaro hamjamiyat tomonidan ham qizg'in qo'llab-quvvatlangani va ushbu hujjatni qabul qilish borasidagi ishlar jadallik bilan olib borilayotgani diqqatga sazovor.

Davlatimiz rahbari Turkmanistondagi "Avaza" milliy sayyohlik hududida bo'lib o'tgan Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining uchinchi Maslahat uchrashuvida ham yoshlar masalasiga alohida e'tibor qaratdi. Jumladan, butun dunyoda yosh avlod ongi va qalbi uchun kurash davom etayotgan bugungi kunda Markaziy Osiyo kelajagi bo'lgan yoshlarni vatanparvarlik, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash lozim ekanligi urg'ulandi.

Bugungi axborot texnologiyalari rivoji, iqlim o'zgarishi va pandemiya davrida yoshlar katta muammo va tahdidlarga duch kelmoqda. Shunday qilib, navqiron avlod farovonligi butun dunyoda bo'lgani kabi O'zbekiston uchun ham kun tartibidagi masala hisoblanadi. Davlatimiz rahbari tomonidan amalga oshirilayotgan islohotlar yoshlarimizning farovon hayot kechirishi uchun barcha sharoitni yaratishga qaratilgan.



Yangi O'zbekiston yoshlar siyosatida yigit-qizlarning muammolarini o'zlari hal etishiga ko'maklashish yetakchilik qiladi. Prezidentning Oliy Majlis palatalari huzurida Yoshlar parlamentlarini tashkil qilish tashabbusi bu borada muhim ahamiyatga ega bo'ldi, desak, ayni haqiqat. Negaki, yoshlarimiz nafaqat qonun ijodkorligi jarayonlari bilan tanishmoqda, ayni chog'da o'z muammolarini Yoshlar parlamentlari orqali ilgari surmoqda.

Oliy Majlis Senati Kengashining tegishli qarori bilan 2020-yilda jamoatchilik asosida faoliyati yo'lga qo'yilgan Yoshlar parlamentining maqsadi — ertamiz egalarining siyosiy-huquqiy ongi va savodxonligi, ijtimoiy faolligini oshirish, ularning huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish hamda qonunchilik jarayoniga jalb etishdan iborat. Bu yangi tuzilma yoshlar siyosiy faolligini namoyon qilib, yurtimizda ularga ko'rsatilayotgan katta e'tibor namunasi bo'ldi.

➔ 3

# IHT DOIRASIDAGI TASHABBUSLAR

## O‘ZARO ISHONCH VA HAMJIHATLIK MUHITINI MUSTAHKAMLAMOQDA

1

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2021-yilning 28-noyabr kuni Iqtisodiy hamkorlik tashkilotining Turkmaniston poytaxti Ashxobod shahrida o‘tgan 15-sammitida so‘zlagan nutqida tashkilot hududi — bu tarixi, dini, madaniyati va qadriyatlari mushtarak, ulkan salohiyatga ega bo‘lgan mintaqa ekanini alohida ta’kidladi. Pandemiya sharoitlarida mamlakatlarimiz iqtisodiyotlarining kuchli va zaif tomonlari yaqqol ko‘ringani qayd etildi. Ushbu xatar mintaqa mamlakatlari bir-biriga o‘zaro bog‘liq ekani, savdo-iqtisodiy aloqalarni yanada rivojlantirish zarurligini ochiq-oydin namoyon etdi. Shu bilan birga, IHTga a’zo mamlakatlarning mavjud salohiyati va keng imkoniyatlaridan to‘liq foydalanilmayotgani ta’kidlandi. Davlatimiz rahbari tomonidan 2025-yilgacha bo‘lgan davrga mo‘ljallab qabul qilingan harakatlar dasturi doirasida ko‘p tomonlama sheriklikni rivojlantirishga qaratilgan qator muhim tashabbuslar ilgari surildi.

Mamlakatlarimizda o‘zaro sarmoyalar oqimini ko‘paytirish va ularni ishonchli himoyalashga, sanoat kooperatsiyasini chuqurlashtirishga qaratilgan Qo‘shma harakatlar dasturini qabul qilish bugungi kun talabi. O‘zaro savdo hajmlarini oshirish, mintaqaviy ahamiyatga ega loyihalarni ishlab chiqish va mamlakatlarimiz iqtisodiyotlarining jahon bozoridagi raqobatbardoshligini kuchaytirish lozim. Buning real mexanizmi sifatida Shavkat Mirziyoyev BMTning Sanoatni rivojlantirish tashkiloti (UNIDO) va Markaziy Osiyo iqtisodiyoti uchun (SPEKA) Maxsus dasturi bilan hamkorlikda tashkilot doirasida Savdo, investitsiyalar va innovatsiyalar markazini tashkil etish hamda uning qarorgohini Toshkent shahrida joylashtirishni taklif qildi.

Yana bir muhim yo‘nalish — mintaqamizdagi mavjud transport yo‘laklaridan unumli foydalanish va yangilarini yaratish. Mintaqalararo tranzit xablarini tashkil etish, zamonaviy transport va yo‘l infratuzilmalarini rivojlantirish, transport va tranzit tariflarini optimallashtirish hamda qo‘shimcha chegirmalarni taqdim qilish, xalqaro yuk va yo‘lovchi tashish shartlarini yengillashtirish, transport sohasini raqamlashtirish masalalariga aniq yechimlar topish muhim. Bu rejalarni ro‘yobga chiqarish uchun mamlakatlarimizning transport-kommunikatsiya aloqalarini rivojlantirish va tranzit salohiyatini kengaytirishga qaratilgan mintaqaviy strategiyani ishlab chiqish maqsadga muvofiq.

Global iqlim kun tartibi tobora dolzarb bo‘lib borayotganini hisobga olib, Ashxobod sammitida “yashil” iqtisodiyotga o‘tishni davom ettirish masalalari ko‘rib chiqildi. Yetakchilar bu borada faol hamkorlik qilish, jumladan, uglerod neytralligiga erishish uchun sanoat tarmoqlarida ekologik toza va resurstejamkor texnologiyalarni keng tatbiq etish zarur ekanini ta’kidladi. Shu maqsadda Prezident Shavkat Mirziyoyev xalqaro ekolog olimlar va ekspertlar ishtirokida yuqori darajadagi doimiy Muloqot kengashini tuzishni taklif qildi. Sayyohlik almashinuvini qayta tiklash muhimligini qayd etib, Xavfsiz sayyohlikni rivojlantirish umummintaqaviy dasturini qabul qilish tashabbusini bildirdi. Ushbu tashabbus doirasida ziyorat turizmi va boshqa qo‘shma sayyohlik mahsulotlarini ishlab chiqish, aviaqatnovlar geografiyasini kengaytirish, turizm infratuzilmasini rivojlantirishga jiddiy e’tibor qaratish nazarda tutilgan.

Xo‘sh, O‘zbekiston mazkur tashkilot ishida qatnashishdan qanday manfaat topadi? Birinchidan, erishilgan ahdnomalar, kelishuvlar amalga oshsa, a’zo davlatlar o‘rtasida mablag‘lar, tovarlar va xizmatlar erkin aylanishi ta’minlanadi. Bu yangi bozorlar paydo bo‘lishi, yangi ish o‘rinlari yaratilishi, aholining barqaror daromad bilan ta’minlanishi, xizmat turlarining kengayishi demakdir. Ikkinchidan, mintaqalarimizning transport yo‘laklarini kengaytirib, tranzit salohiyatini oshiradi va o‘zaro iqtisodiy hamkorligimizni yanada jadallashtiradi. Biz O‘zbekiston — Turkmaniston — Eron — O‘mon, O‘zbekiston — Qirg‘iziston — Xitoy transport yo‘laklarini, shuningdek, Ozarbayjon orqali Turkiya va Yevropa davlatlariga chiqish yo‘llarini rivojlantirishdan manfaatdormiz. Shu bilan birga, yangi taklif etilgan Mozori-Sharif — Kobul — Peshovar temir yo‘lining qurilishi Afg‘onistonni mintaqamizga integratsiya qilish va barqaror taraqqiyotni ta’minlashda ulkan ahamiyat kasb etadi. Shu bilan bir qatorda, mazkur transport yo‘laklari mahsulotlarimizni arzon narxlarda jahon bozoriga chiqarish imkoniyatini yaratadi. Demak, eksportchi olgan daromadi, foydasi hisobiga ishchining moddiy manfaatdorligi ta’minlanadi, farovonligi oshib, turmush sharoiti yaxshilanadi.

Kezi kelganda aytish joizki, shu yil noyabr oyi boshida poytaxtimizda bo‘lib o‘tgan Iqtisodiy hamkorlik tashkiloti transport vazirlarining 12-yig‘ilishi yakuni bo‘yicha Toshkent deklaratsiyasi qabul qilindi. Hujjat tashkilotga a’zo mamlakatlar o‘rtasida yuk tashuvlari jarayonlarini yanada soddalashtirish, mamlakatlar tranzit salohiyatini oshirish, muqobil transport yo‘laklarini rivojlantirish kabi masalalarni o‘z ichiga olgan. Samarqandning qadimiy shahar ekani va turizm salohiyatini inobatga olgan holda Samarqand aeroportiga IHT davlatlari aviatsiya xabi maqomini berish taklifi qatnashchilar tomonidan ma’qullandi.

O‘zbekiston — Turkmaniston — Eron — Turkiya yo‘lagini yanada rivojlantirish bo‘yicha ishtirokchi mamlakatlar transport vazirlari darajasida hujjat imzolandi. Bu yo‘nalish, birinchi navbatda, O‘zbekiston va Turkiya o‘rtasida yuk tashuvlarini muqobil Janubiy yo‘lak orqali raqobatbardosh narxlarda hamda chegaradan o‘tish davlatlarini qisqartirish va tartib-taomillarni soddalashtirish hisobiga qisqa muddatlarda yetkazib berishga imkon yaratadi. Keyinchalik mazkur kelishuvga mintaqaning boshqa mamlakatlari qo‘shilishi O‘zbekistonning tranzit salohiyatini yanada oshirishga turtki bo‘ladi.

Bundan tashqari, qabul qilingan “IHT istiqbollari — 2025” konseptual dasturi asosida 500 milliondan ortiq aholi yashaydigan ulkan bozorga ega bo‘lgan mamlakatlarimizning savdo va investitsiya sohalaridagi katta imkoniyatlaridan to‘liq foydalanilsa, yurtimizga, mintaqamizga katta miqdorda sarmoyalar kirib keladi, buning sharofatidan aholimiz ham, tashkilotga a’zo davlatlar ham birdek foyda ko‘radi. Bu ham qo‘shimcha ish o‘rinlari, aholining real daromadlari oshishi garovidir.

IHT har qanday mintaqaviy tuzilmadan farqli o‘laroq, Afg‘onistondagi vaziyat barqarorlashuvidan chin ma’noda manfaatdor. IHTga a’zo mamlakatlar joylashuvi, diasporalar mavjudligi va qo‘shniligidan kelib chiqib, Yaqin Sharq, Markaziy va Janubiy Osiyo mintaqasi muammolaridan yaxshi xabardor va ayni hol ular Afg‘onistonni o‘zgartirish jarayonida juda kerakli ekanini anglatadi. Bundan tashqari, Markaziy Osiyoning 3 ta mamlakati: O‘zbekiston, Tojikiston va Turkmaniston hamda yana 2 ta mamlakat: Eron bilan Pokistonning Afg‘oniston bilan bevosita chegarasi bor. Boshqa mamlakatlarning taraqqiyoti ko‘p jihatdan mintaqadagi siyosiy va iqtisodiy vaziyatga bog‘liq — ular mintaqadagi transport, kommunikatsiya va energetika tizimining shakllanish jarayonida faol qatnashmoqda.

IHTning hozirgi kundagi maqsadlari aniq, pragmatik va shaffofdir, ular savdo-sotiq yo‘lidagi to‘siqlarni



bartaraf etish, mintaqalar o‘rtasidagi savdoni rivojlantirish va IHTga a’zo mamlakatlar tovarlarini global bozorlarga olib chiqishga yo‘naltirilgan. Madaniy va tarixiy aloqalarni mustahkamlash ham undan kam bo‘lmagan ahamiyatga ega. A’zo davlatlar o‘z faoliyatida umumiy diniy qadriyatlarga tayanadi, bu umumiy muloqot tilini yaratishda yordam beradi, siyosiy madaniyatlarni o‘zaro yaqinlashtiradi hamda tushunmovchilik va davlatlararo mojarolar darajasini kamaytiradi. Umuman olganda, IHTning jipslashuvi mintaqadagi qolgan faol aktorlar manfaatlariga zid kelmaydi. Ular IHTga a’zo mamlakatlar bilan shusiz ham ikki tomonlama yoki ko‘p tomonlama asosda (5+1, SHHT, YOII, Turkiy davlatlar tashkiloti) hamkorlik qilib kelmoqda.

Shu bilan birga, IHTga a’zo mamlakatlarning aksariyati mintaqadagi yirik davlat — Hindiston bilan hamkorlik qiladi va ular rejalashtirilayotgan transport va energetika koridorlari bilan bog‘liq Chobahor hind — eron loyihasi amalga oshirilishidan manfaatdor. Shu ma’noda, O‘zbekiston Eron Islom Respublikasini ochiq dengizga chiqishi uchun eng yaxshi, eng qulay va eng arzon yo‘nalishlardan biri sifatida biladi. Tehron ham, o‘z navbatida, o‘zining temir yo‘l, avtomobil va dengiz yo‘nalishlari tarmog‘i, xususan, Bandar Abbos va Chobahor portlaridan o‘zbekistonlik tadbirkorlar savdo-iqtisodiy maqsadda foydalanishi, O‘zbekiston va boshqa davlatlar tovarlarini tashishi uchun tayyorligini bildirmoqda.

Ikki davlat Ashxobod bitimi, Eron, O‘zbekiston va Afg‘oniston o‘rtasidagi uch tomonlama bitim, Iqtisodiy hamkorlik tashkiloti doirasidagi bitim va kelishuvlar asosida ayni yo‘nalishdagi hamkorlikning huquqiy, konsullik va bojxona bilan bog‘liq shart-sharoitini yaratishga harakat qildi. Eron Prezidenti Ibrohim Raisiy O‘zbekistonni Chobahor bitimiga hamda Shimol — Janub yo‘lagiga qo‘shishga tayyorligini bildirgan. Shu kunga qadar bu masalada ko‘plab tashriflar uyushtirildi, muzokaralar amalga oshirildi. Shuningdek, O‘zbekiston temir yo‘l va avtomobil yo‘li tarmog‘i eronlik tadbirkorlarning boshqa davlatlarga chiqishi uchun qulay yo‘nalish hisoblanib, ikki tomonlama, mintaqaviy va xalqaro bitimlar doirasida ushbu imtiyozdan foydalanyapti.

> *Iqtisodiy hamkorlik tashkiloti taraqqiyot uchun muhim ahamiyat kasb etadigan infratuzilmalar nuqtayi nazaridan ham ijobiy ko`rsatkichlarga ega. Xususan, tashkilotga a’zo davlatlar 8 million kvadrat kilometr maydonni qamrab olgan yurtlar bo`lib, Osiyo qit’asining 20 foizini, jahonning 6 foiz qismini tashkil etadi. Shuningdek, IHT mintaqasi 500 milliondan ko`proq aholiga ega bo`lib, yirik imkoniyatlarga ega iste’mol bozori hisoblanadi. Bu davlatlar o`rtasidagi o`zaro tovar aylanmasi esa 600 milliard dollarni tashkil etadi.*

Shunday qilib, biz mintaqada qalin hamkorlik hamda globalizm va regionalizm o‘zaro chatishib ketganiga shohid bo‘lyapmiz. Turli davlatlararo tuzilmalar — SHHT, YOII, IHT, “Bir makon, bir yo‘l”, “MO+1”, Turkiy davlatlar tashkiloti va boshqa tashkilotlar manfaatlarining yaqinlashuvi ularning ehtimol tutilgan raqobatini yumshatadi hamda kuch va manfaatlar muvozanatiga rioya qilish uchun platforma yaratadi. Ayni chog‘da global davlatlarning mintaqaviy muammolarni hal etishdagi ishtiroki darajasini mintaqaning o‘zi manfaatlar muvozanatiga rioya qilish asosida tartibga soladi — hozir ham bu narsa yuz bermoqda. Aftidan, vaqt xavfsizlik va taraqqiyot talablariga eng ko‘p javob beradigan regionalizm shaklini kuchaytiradi.

Ilgari surilgan taklif va tashabbuslar O‘zbekistonning xalqaro va mintaqaviy sahnadagi mavqeini mustahkamlaydi. Mamlakatning kuchli taraqqiy topgan davlatlar safidan mustahkam o‘rin olishiga poydevor bo‘ladi, xalqimiz farovonligini, eng asosiy huquq va erkinliklarini ta’minlash garovi bo‘lib xizmat qiladi. O‘zbekiston Iqtisodiy hamkorlik tashkiloti Tashqi ishlar vazirlari kengashining 26-yig‘ilishiga muvaffaqiyatli mezbonlik qildi, tadbir tashkiliy jihatdan yuqori darajada o‘tdi.

Bugungi kunda O‘zbekiston mintaqada o‘zaro bog‘liqlikni ta’minlash bo‘yicha, shubhasiz, yetakchi. Xususan, IHT doirasida, avvalo, Ashxobod sammitida ko‘tarilgan barcha tashabbuslar, shuningdek, O‘zbekistonning mintaqada markaziy davlatga aylangani Markaziy Osiyo mamlakatlari o‘rtasidagi munosabatlarni keskin ijobiy tomonga o‘zgartirdi.

Umuman, O‘zbekistonning global va mintaqaviy darajadagi sammitlarga mezbonligi keng makondagi hamkorlikni sezilarli darajada kengaytirmoqda. Iqtisodiy hamkorlik tashkilotining 8-9-noyabr kunlari Toshkent shahrida bo‘lib o‘tadigan o‘n oltinchi sammitida ham mintaqaviy o‘zaro bog‘liqlikni yanada mustahkamlash masalalariga alohida e’tibor qaratiladi. Zero, 2022-yil Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan “IHTda o‘zaro bog‘liqlikni mustahkamlash yili” deb e’lon qilingani bejiz emas, albatta. Bu tashkilot doirasidagi hamkorlikka yangicha sur’at baxsh etdi.

O‘ziga xos tarix, madaniyatga ega mintaqamiz ayni payt yanada jipslashib, integratsiyalashmoqda. Bu borada O‘zbekistonning roli juda muhim. Bir tomondan, davlatimiz rahbarining taklif va tashabbuslari tufayli Turkiya, Eron va Pokiston o‘rtasidagi siyosiy ishonchsizlik o‘rnini savdo-iqtisodiy to‘siqlarni olib tashlash muhiti egalladi. Natijada tashkilotning salohiyati ortdi. Markaziy Osiyoda esa Prezident Shavkat Mirziyoyevning tashabbuslari orqali siyosiy ishonch kuchaygan. O‘zbekiston mintaqaning yuragi sifatida Markaziy Osiyo integratori rolini tobora kengaytirmoqda, shu bilan birga, mintaqaviy tashkilotlardagi ishtirokini faollashtirib, xalqaro miqyosda dadil tashabbuslarni ilgari surmoqda.

**Baxtiyor MAHKAMOV,**
**Toshkent axborot texnologiyalari universiteti rektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor.**

# JAHON BANKI VAKILLARI BILAN UCHRASHUV

1

Jahon banki vakillarining bildirishicha, baholash xulosalari 2018 — 2022-yillar va qisman 2023-yilda mamlakatda amalga oshirilgan ishlar, tadqiqotlar, kuzatuvlar va statistik ma’lumotlarni o‘rganish natijalari asosida tayyorlangan.

Muhokama jarayonida vazirlik va idoralar vakillari O‘zbekistonda xotin-qizlarning huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, ularning iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy faolligini oshirish, gender tenglikni ta’minlash borasida bajarilgan ishlarga to‘xtalib o‘tdi.

O‘z navbatida, Jahon banki vakillari O‘zbekistonda keyingi yillarda bu yo‘nalishda katta islohotlar bajarilgani, ularning natijalarini xulosada aks ettirish muhimligini ta’kidlab o‘tdi.

Uchrashuv yakunida bildirilgan taklif va mulohazalarni inobatga olgan holda yakuniy hujjatni takomillashtirishga kelishib olindi.

**“Xalq so‘zi”.**

# ILK BOR BARQAROR RIVOJLANISH MAQSADLARI OYLIGI O‘TKAZILMOQDA

1

Fuqarolik jamiyati institutlari tomonidan milliy maqsadlar muhokamasiga bag‘ishlangan jamoatchilik eshituvlari o‘tkazilishi ham ko‘zda tutilgan.

Barqaror rivojlanish maqsadlari oyligining o‘tkazilishi natijasida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining taklifi asosida qabul qilingan BMT Bosh Assambleyasining “Barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishni jadallashtirishda parlamentlar rolini kuchaytirish to‘g‘risida”gi rezolyutsiyaning, shuningdek, BMT Bosh Assambleyasining 78-sessiyasida hamda Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining Maslahat uchrashuvida ilgari surgan tashabbuslari mazmun-mohiyati dunyo hamjamiyati bilan birgalikda keng muhokama qilinadi, targ‘ib etiladi _as hu orqali O‘zbekistonning xalqaro maydondagi ijobiy imiji yanada mustahkamlanadi.

Mazkur oylik doirasida Barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishda parlamentlararo hamkorlik bo‘yicha Toshkent kommyunikesi qabul qilinadi.

Qolaversa, mamlakatimizda faoliyat yuritayotgan nodavlat notijorat tashkilotlari tashabbusi bilan ilgari surilayotgan Barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishda fuqarolik jamiyati institutlari ishtirokini kengaytirish to‘g‘risida BMT Bosh Assambleyasining rezolyutsiyasi loyihasi ishlab chiqilib, ushbu tashkilotga yuboriladi.

Shuni alohida ta’kidlash joizki, mazkur tadbirlar va uning doirasida ishlab chiqiladigan hujjatlar mamlakatimizning Barqaror rivojlanish maqsadlari reytingidagi o‘rnining yanada yaxshilanishiga xizmat qiladi.

Barqaror rivojlanish maqsadlari oyligi va II global forum ommaviy axborot vositalari hamda ijtimoiy tarmoqlarda keng yoritiladi.

**“Xalq so‘zi”.**

Davra suhbati

# AHOLINING KAM TA’MINLANGANLIK DARAJASINI PASAYTIRISH – DOLZARB MASALA

*Keyingi yillarda yurtimizda kambag‘allikni qisqartirish modelini hayotga tatbiq etish orqali tizimli ishlar va ezgu sa’y-harakatlar amalga oshirib kelinmoqda. Zero, 2030-yilgacha bo‘lgan davrda barqaror rivojlanish borasidagi milliy maqsad va vazifalarning asl maqsadi ham barcha joyda aholining kam ta’minlanganlik darajasini pasaytirishdan iborat.*

Oliy Majlis Senati Budjet va iqtisodiy islohotlar masalalari qo‘mitasi hamda Qonunchilik palatasining Byudjet va iqtisodiy islohotlar qo‘mitasi hamkorligida o‘tkazilgan “O‘zbekistonda kam ta’minlanganlikni kamaytirishga qaratilgan samarali mexanizmlarni joriy etish” mavzuidagi davra suhbatida ayni masala atroflicha tahlil qilindi.

E’tirof etilganidek, O‘zbekistonda aholining kam ta’minlangan qatlamlarini hisobga olish, manzilli qo‘llab-quvvatlashning yangi milliy modeli hayotga tatbiq qilindi hamda “Ijtimoiy himoyaning yagona reyestri” axborot tizimi va “Mahallada ijtimoiy xizmat” moduli orqali ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish yo‘lga qo‘yildi. Ayni chog‘da kam ta’minlangan oilalarda yashovchi ishsizlarni o‘qitish, kasbga tayyorlash va tadbirkorlik faoliyatiga jalb etish orqali ishga joylashtirish va aholini kasb-hunarga o‘rgatish tizimi yaratildi.

Qolaversa, bugungi kunda turli mamlakatlarda talab yuqori kasb va mutaxassisliklarga fuqarolarni o‘qitish orqali mehnat migratsiyasini amalga oshirish va mehnat migrantlari oilalari daromadini ko‘paytirishga hamda qishloq joylarda kambag‘allikni kamaytirishga alohida e’tibor qaratib kelinayotir.

Shularga mos ravishda kam ta’minlangan aholini shinam uy-joy bilan ta’minlash darajasini oshirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratildi. Shuningdek, har bir mahallada ishsiz deb topilgan hamda ishlash yoki tadbirkorlik bilan shug‘ullanish istagini bildirgan xotin-qizlar va yoshlar ro‘yxati shakllantirilib, turli kasb-hunar va tadbirkorlikka o‘qitish kurslari xarajatlarining 70 foizini davlat tomonidan qoplash mexanizmi yo‘lga qo‘yildi.

“Ayollar daftari”, “yoshlar daftari” va “temir daftar”dagi aholi uchun trening va turli mashg‘ulotlar bepul tarzda o‘tkazilmoqda. O‘quv kurslarini tamomlagan fuqarolarga tadbirkorlik subyekti sifatida davlat ro‘yxatidan o‘tkazishdan tortib, o‘z faoliyatini yo‘lga qo‘yishgacha bo‘lgan barcha jarayonda amaliy yordam ko‘rsatish tizimi ham muvaffaqiyatli ishlab kelyapti.

Tomorqasi bo‘lgan tadbirkorlarga 300 milliard so‘m imtiyozli kredit va subsidiyalar ajratildi. Oxirgi 3 yilda 91,8 mingta ko‘p bolali, mehnatga layoqatsiz, bolalikdan nogironligi bo‘lgan yolg‘iz keksalari bor oilalar esa turarjoy bilan ta’minlanib, yashash sharoitlari yaxshilandi.

Tadbir asnosida aholining kam ta’minlangan qatlamlarini qo‘llab-quvvatlash, kambag‘allikni qisqartirish borasidagi vazifalar mutasaddilar ishtirokida keng muhokama qilindi.

O‘z navbatida, kam ta’minlanganlar sonini kamaytirishga qaratilgan samarali mexanizmlarni joriy etish yuzasidan tavsiyalar ishlab chiqildi.

**“Xalq so‘zi”.**

Senator va hayot

# NEGA MAHALLADA CHIROQ TEZ-TEZ O‘CHADI?

*Avval xabar berilganidek, Oliy Majlis Senati a’zolari hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturlarining ijrosi hamda kuz-qish mavsumiga tayyorgarlik jarayonlari bilan yaqindan tanishish maqsadida joylarga chiqib aholi vakillari bilan bevosita muloqot va uchrashuvlar o‘tkazmoqda.*

Xususan, yaqinda parlament yuqori palatasi Sud-huquq masalalari va korrupsiyaga qarshi kurashish qo‘mitasi raisi Narimon Umarov tomonidan Shayxontohur tumani mahallalarida kuz-qish mavsumiga tayyorgarlik masalasi o‘rganib chiqildi. Jumladan, senator “Ilg‘or” mahalla fuqarolar yig‘inida bo‘lib, aholi vakillari bilan dildan suhbatlashdi.

Suhbat davomida aholi tomonidan oxirgi vaqtlarda ushbu mahallada elektr ta’minotidan tez-tez uzilishlar kuzatilayotgani, agar mazkur holat davom etadigan bo‘lsa, fuqarolar, ayniqsa, keksa yoshdagilar va yosh bolali oilalar qiynalishi ta’kidlab o‘tildi.

Shulardan kelib chiqib, mas’ul tashkilotlar vakillarining shu masala yuzasidan izohlari tinglandi.

Shayxontohur tumani elektr ta’minoti korxonasi rahbarining qayd etishicha, “Ilg‘or”, “Tinchlik”, “Jarariq” hamda “Ko‘kcha” mahalla fuqarolar yig‘inlarining so‘nggi vaqtlarda elektr ta’minotidan tez-tez uzilishi ushbu hududlardan o‘tgan yuqori kuchlanishdagi kabel tarmoqlari eskirgani hamda transformator punktlari kabellari 1978-yilda ishga tushirilgani, hozirgi kunda yaroqsiz holatga kelib qolgani bilan bog‘liq.

Senator mutasaddilarga aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish bo‘yicha tavsiyalar berdi hamda mazkur masala alohida nazoratga olinganini ma’lum qildi.

**“Xalq so‘zi”.**

# Polshada yangi O‘zbekistonning savdo-iqtisodiy, investitsiyaviy va transport-logistika salohiyati taqdim etildi

1

— Respublikani har tomonlama rivojlantirish va modernizatsiya qilish bo‘yicha kompleks dastur Polsha biznesi bilan hamkorlikni kengaytirish uchun ajoyib imkoniyat, bu ikkala tomon uchun ham foydalidir, — dedi Yanush Pexochinski. — Polsha biznesi uchun yaxshi istiqbolli mamlakat — O‘zbekiston bilan yaqin hamkorlik qilish vaqti keldi. O‘zbekistonda biznes yuritish uchun sharoitlar sezilarli darajada yaxshilandi. GSP+ preferensiyalar bosh tizimining taqdim etilishi O‘zbekiston ishlab chiqaruvchilarini tashqi savdo faoliyatiga yo‘naltirish va ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar sifatini oshirishda rag‘batlantiruvchi omil bo‘lib xizmat qilmoqda.



“Polonia Union” jamg‘armasi rahbari Edgard Skarjinski o‘z chiqishida O‘zbekiston to‘qimachilik mahsulotlarining Polsha va Yevropa Ittifoqiga eksporti hajmi oshgani o‘zaro samarali harakatlarning yaqqol misoli ekanligini ta’kidladi.

— Polsha importyorlarini qiziqtiradigan narsalar — bu paxtadan kalava va kiyim-kechak mahsulotlari, mineral o‘g‘itlar, qishloq xo‘jaligi mahsulotlari, ayniqsa, meva va sabzavotlar, — dedi u. — Bundan tashqari, biz 2024-yil fevral oyida Varshava — Toshkent — Varshava yo‘nalishida to‘g‘ridan-to‘g‘ri aviaqatnovlar yo‘lga qo‘yilishi natijasida O‘zbekistonda turizm sohasida ulkan imkoniyatlarni ko‘ryapmiz. Polsha kompaniyalari esa inson kapitaliga katta qiziqish bildirmoqda va qonuniy migratsiyani taklif qilmoqda.

Tadbir doirasida “G2B” va “B2B” formatidagi muzokaralar ham o‘tkazildi va qator qo‘shma dastur hamda loyihalarni amalga oshirish bo‘yicha kelishuvlarga erishildi.

**“Dunyo” AA.**
Varshava

# JAMIYATNING BEQIYOS KUCHI VA BOYLIGI

← 1

Mazkur tuzilma a'zolari "Yoshlar 2020: global miqyosdagi birdamlik, barqaror taraqqiyot va inson huquqlari" mavzuida o'tkazilgan inson huquqlari bo'yicha Samarqand forumida faol ishtirok etdi, ular tomonidan Yoshlar huquqlari to'g'risida konvensiya loyihasiga tegishli takliflar berildi.

Bundan tashqari, 100 mingga yaqin yoshlar ishtirokida qonunchilik va islohotlar ahamiyati hamda mohiyatini tushuntirishga qaratilgan 400 dan ortiq uchrashuv, tanlov, chellenj va davra suhbatlari o'tkazilgan. 20 mingga yaqin yigit-qizlar ishtirokida "Saylov va yoshlar", "Deputat va yoshlar" kabi ochiq muloqotlar uyushtirildi. Shuningdek, konstitutsiyaviy islohotlarni, yangilangan Konstitutsiya mazmunini keng targ'ib qilish maqsadida ta'lim tashkilotlari va mahallalarda 300 ga yaqin uchrashuvlar tashkil etilib, ularda minglab yosh avlod vakillari qamrab olindi.

Yoshlar parlamenti tomonidan 8 ta qonunning bugungi kundagi holati va hududlardagi ijrosi o'rganilib, ularga tegishli o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish hamda takomillashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqildi. Yoshlarning ta'lim olish va mehnat qilish huquqlari kafolatlariga oid qonunchilik ijrosini samarali tashkil etish, mahallalarda o'g'il-qizlar bilan ishlash, ular o'rtasida sport turlarini rivojlantirish, navqiron avlodning madaniyat obyektlari va sport inshootlaridan, mahallalarda "Workout" sport maydonchalaridan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish, voyaga yetmagan mahkumlarni jamiyatga qaytarish, bolalarni ularning sog'lig'iga zarar yetkazuvchi turli axborotlardan himoya qilish shular jumlasidan.

"Qonunchilik yoshlar nigohida" loyihasi doirasida 14 ta uchrashuv o'tkazilib, ularda "O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga saylov va referendum o'tkazish tartibini yanada takomillashtirishga qaratilgan o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi qonun loyihasi hamda "O'zbekiston — 2030" strategiyasi mazmun-mohiyati yoshlarga tushuntirildi.

Tuzilma a'zolari o'z faoliyati davomida joylarda yigit-qizlar muammolarini aniqlab, ularni bartaraf etish yuzasidan tegishli takliflarni Senatga, uning qo'mitalari va xalq deputatlari mahalliy Kengashlariga taqdim etib kelmoqda. Ayni chog'da ular 80 ga yaqin qonunlar muhokamasida hamda qo'mitalar tomonidan o'tkazilgan 50 dan ortiq nazorat-tahlil faoliyatlarida faol qatnashdi.

Shunday qilib, yoshlar siyosati O'zbekiston uchun doimiy e'tiborda bo'lib kelmoqda. Buni birgina oxirgi 6 yilda yoshlar siyosatiga doir 106 ta hujjat qabul qilingani misolida ham ko'rish mumkin. Muhimi, ana shu hujjatlar doirasida salmoqli ishlar ro'yobga chiqarildi va izchillik bilan davom ettirilmoqda. Ular ijrosini ta'minlash jarayonida Oliy Majlis Senati, jumladan, qo'mitamiz ham faol qatnashib kelmoqda.

## Farzandlarimiz o'z ish joyiga ega bo'lishi zarur

Bu haqda gap ketganda, yigit-qizlar bandligini ta'minlash hamda ularning muammolarini hal qilishga qaratilgan mutlaqo yangi tizim, ya'ni "yoshlar daftari" joriy etilganini alohida ta'kidlash o'rinli. Chunki bu tizim orqali qanchadan-qancha yosh avlod vakillari ish joyiga ega bo'ldi. Ishlar samaradorligini ta'minlash maqsadida tizimni raqamlashtirish, berilayotgan imtiyoz va imkoniyatlar shaffofligini ta'minlash, joylarda amalga oshirilayotgan sa'y-harakatlarni 3 bosqichda monitoring qilishda qo'l keladigan elektron platforma faoliyati yo'lga qo'yildi.

Yoshlarimizni qo'llab-quvvatlash maqsadida har bir tuman (shahar) va viloyatda moliyaviy manbalari aniq belgilangan alohida "Yoshlar daftari" jamg'armalari tuzildi hamda ularda 1 trillion 233 milliard so'm miqdorida mablag'lar shakllantirildi. E'tiborlisi, 2021-2022-yillarda "yoshlar daftari"ga kiritilgan yigit-qizlarning 827 ming nafariga 962 milliard so'mlik yordam ko'rsatildi. Joriy yilda ham bu ezgu ishlar izchillik bilan davom ettirilayotir.

Shularga mos ravishda respublika bo'yicha minglab yosh avlod vakillari kasb-hunar va tadbirkorlikka o'qitildi. Bundan tashqari, o'g'il-qizlarni talab yuqori bo'lgan zamonaviy kasb-hunarlarga masofaviy o'qitish maqsadida alohida platforma faoliyati yo'lga qo'yildi. Bugungi kunga qadar 10 ming 637 nafar yosh shu loyihani muvaffaqiyatli tamomladi.



Qishloqlarda yashayotgan yoshlar uchun ham qator qulayliklar yaratilayotgani e'tiborga molik. Aniq aytadigan bo'lsak, 439 ming nafar ana shunday yigit-qizga 151 ming gektar yer maydonlari ajratish orqali ularni ishli qilishning yangi mexanizmi yaratildi.

Shuningdek, yoshlar bandligini ta'minlash samaradorligini oshirishga yo'naltirilgan bir qator imtiyozlar joriy etildi. Jumladan, 2021-yildan boshlab ish beruvchilarga ularning 25 yoshdan oshmagan ishchi-xodimlari uchun hisoblangan ijtimoiy soliq summasini byudjetdan to'liq qaytarib berish tartibi joriy etilishi hisobiga korxonalarga 150 milliard so'm qaytarildi.

Hududlarda "Yosh tadbirkorlar" kovorking-markazlari hamda "Yoshlar mehnat guzari" foydalanishga topshirilishi hisobiga ko'plab ish o'rinlari yaratildi.

Tuman (shahar)larda ochilgan Yoshlar sanoat va tadbirkorlik zonalarida 2 ming 408 ta loyiha amalga oshirilmoqdaki, buning natijasida yana ko'plab yigit-qizlar bandligini ta'minlash mumkin bo'ladi.

Keyingi 6 yilda mamlakatimizda yosh tadbirkorlar 8 barobar ko'payib, ular soni 750 mingdan oshgani ham bu yo'nalishdagi islohotlar nechog'li samarali kechayotganidan dalolat berib turibdi.

## "Yoshlarning bo'sh vaqti — dushmanning ish vaqti"

Xalqimizda "Yoshlarning bo'sh vaqti — dushmanning ish vaqti" degan naql bejiz tilga olinmaydi. Uning zamirida navqiron avlodning bo'sh vaqtini mazmunli o'tkazishiga doimiy e'tibor qaratish zarurati yotadi.

O'zbekistonning yoshlar siyosatida farzandlarimiz bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish masalasi alohida o'rin tutadi. Shu bois ushbu yo'nalishda ham muhim chora-tadbirlar ko'rilmoqda. 2019 — 2022-yillar davomida yurtimizdagi madaniyat markazlari va umumta'lim maktablarida yoshlarni madaniyat va san'atga yo'naltirish maqsadida 41 mingdan ziyod to'garaklar faoliyati yo'lga qo'yilib, ularga milliondan ziyod yoshlar jalb qilindi. Ayni chog'da madaniyat va san'at yo'nalishida tashkil etilgan turli loyiha va tanlovlarga ham minglab o'g'il-qizlarimiz qamrab olindi.

Tabiiyki, farzandlarimizning bo'sh vaqtini ko'ngildagidek o'tkazishda sportning o'rni beqiyos. Bu borada ham katta ishlar qilinmoqda. Respublika bo'yicha sport inshootlari, umumta'lim maktablari, bolalar va o'smirlar sport maktablarida 149 mingdan ortiq sport to'garaklari ochilib, ularga yosh avlod vakillari keng jalb qilinmoqda. Qolaversa, sport yo'nalishida o'tkazilgan loyiha va tanlovlarda ham ular ishtiroki borgan sari salmoqli bo'lib borayotir.

Farzandlarimiz iqbolini, albatta, kitobsiz, mutolaasiz tasavvur etish qiyin. Qolaversa, ularning bo'sh vaqtini mazmunan boyitishda kitobxonlik shunchalik muhim o'ringa egaki, buni boshqa hech nima bilan qiyoslab bo'lmaydi. Eslasangiz, shu maqsadda 2020 — 2025-yillarda kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish va qo'llab-quvvatlash milliy dasturi qabul qilingan edi. Hozirga qadar ushbu dasturning "Ma'rifat karvoni" loyihasi doirasida millionlab turli yo'nalishdagi kitoblar yoshlarga yetkazib berildi. Shu bilan birga, "Yosh kitobxon" va "Kitobxon oila" respublika tanlovlari o'tkazilib, 2018 — 2022-yillarda 3,6 million kishi qamrab olingani ham diqqatga sazovor.

Bugungi globallashuv jarayonida kelajakni axborot texnologiyalarisiz tasavvur etish mushkul. Shu sabab ham yoshlarni axborot texnologiyalari sohasiga keng jalb qilish orqali ularning bo'sh vaqtini mazmunli o'tkazish doimiy e'tiborda bo'lib kelmoqda. Shu maqsadda hududlarda Raqamli texnologiyalar o'quv markazlari tashkil etilib, "Bir million dasturchi" loyihasi doirasida million nafar yosh kompyuter dasturlash asoslariga bepul o'qitildi.

Mahallalardagi iqtidorli yoshlarni saralash, ularning iste'dodini namoyish etishiga sharoit yaratish maqsadida "Besh tashabbus olimpiadasi" o'tkazilib, ularga 13 million nafardan ortiq o'g'il-qizlar qamrab olindi. Muhimi, shu jarayonda saralab olingan yuzlab o'g'il-qizlarni havaskorlikdan professionallikka olib chiqish uchun malakali murabbiy va trenerlarga biriktirildi.

Yana bir masalaga to'xtalmasak bo'lmaydi. Gap farzandlarimizning bo'sh vaqtini mazmunli o'tkazish barobarida, ularning intellektual salohiyatini oshirish uchun "Zakovat" intellektual o'yinini ommaviy-ma'rifiy harakatga aylantirish chorasi ko'rilayotgani haqida bormoqda. Bu harakatga 2,6 million nafardan ortiq yoshlar qamrab olinib, harakatni rag'batlantirish maqsadida Davlat byudjetidan mablag' ajratib kelinayotir.

Bundan tashqari, intellektual o'yinlarni rivojlantirish maqsadida barcha turdagi maktab va oliy ta'lim muassasalarida "Zakovat" intellektual klubi to'garaklari va ularning koordinatorlari faoliyati yo'lga qo'yildi.

## Iste'dod egalari doimiy e'tiborda

Barcha zamonda ham xalqimizning iste'dodli farzandlari ko'p bo'lgan. Demak, ularni izlab topish, kerak bo'lsa, muntazam holda qo'llab-quvvatlash nihoyatda dolzarb. Negaki, vaqti kelib ana shu iste'dod egalari mamlakat taraqqiyotida hal qiluvchi kuchga aylanadi. Shu bois ham mamlakatimizda bu masalaga katta e'tibor qaratib kelinmoqda. Kezi kelganda munosib tarzda rag'batlantirilayotir.

Birgina oxirgi 6 yilda mamlakatimiz ravnaqiga munosib hissa qo'shib kelayotgan iste'dodli, fidoyi yoshlarning 758 nafari davlat mukofotlariga sazovor bo'lgani buning yaqqol misolidir.



Хасан ПАЙДОЕВ олган суратлар.

Ilm yo'lini tanlagan iqtidorli yigit-qizlarni qo'llab-quvvatlash maqsadida doktorantura bosqichi uchun kvota ikki barobar oshirildi. 2020-yildan boshlab bu kvotani har yili 50 foizga oshirib borish tartibi joriy etildi. Ushbu maqsadlar uchun har yili qo'shimcha ravishda 100 milliard so'm mablag' ajratiladi.

Oliy ta'lim muassasalariga kirish imtihonlarida eng yuqori ball to'plagan 200 nafar yosh uchun Prezident granti, respublikamizdagi xorijiy oliy o'quv yurtlarining bakalavriat bosqichi talabalari uchun Prezident va davlat stipendiyalari joriy etildi.

Shu o'rinda 2020-yilda O'zbekiston volontyorlar assotsiatsiyasi tashkil qilingani hamda 99 ta volontyorlik guruhlari faoliyat ko'rsatayotganini ham aytish zarur. Hududlardagi Yoshlar markazlarida ochilgan "Volontyorlar maktablari"da minglab yosh volontyorlar o'qitildi. E'tiborlisi, ular ko'plab ijtimoiy himoyaga muhtoj va nogironligi bo'lgan, kam ta'minlangan, yolg'iz keksalari bor oilalarga ijtimoiy loyihalar doirasida ko'maklashmoqda.

## Ijtimoiy himoya — muhim yo'nalish

Mamlakatimizda olib borilayotgan yoshlar siyosatida ularni ijtimoiy himoya qilish va yosh oilalarni qo'llab-quvvatlash salmoqli o'rin egallaydi. Bu borada e'tirofga loyiq ishlar qilinayotganidan ham ko'pchilikning yaxshi xabari bor.

Xususan, to'lov-shartnoma asosida tahsil olayotgan talabalar uchun ta'lim krediti ajratishning yangi tizimi yo'lga qo'yilib, bugungi kunga qadar 151 ming nafar yoshga 1,7 trillion so'm imtiyozli ta'lim kreditlari berildi. Yosh oilalarni uy-joy bilan ta'minlash maqsadida esa alohida dastur qabul qilindi. Shu dastur doirasida 2018 — 2020-yillarda 3 ming 460 ta yosh oilaga "Yoshlar uylari" topshirildi.

Qolaversa, 2018 — 2020-yillarda Vatanimiz Qurolli Kuchlari safida muddatli harbiy xizmatni muvaffaqiyatli o'tab qaytgan va hozirgi paytda ta'lim olayotgan talabalarning shartnoma to'lovi uchun mablag' o'tkazildi.

Chin yetim, nogironligi bor, Mehribonlik uyida tarbiyalangan va boquvchisini yo'qotgan 729 nafar talabaning to'lov shartnomasi qoplab berildi.

Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 21-iyundagi qarori bilan Yoshlarga oid davlat siyosatini qo'llab-quvvatlash jamg'armasi mablag'lari hisobidan joriy yilning 10-sentyabriga qadar nogironligi bo'lgan yigit-qizlarga subsidiya mablag'lari ajratilganini ham aytib o'tish joiz.

Umuman, yurtimizda amalga oshirilayotgan yoshlarga oid davlat siyosati keng qamrovli bo'lib, o'tgan davrda uning doirasida ko'plab ezgu amallar ro'yobga chiqarildi. Oldimizdagi vazifalar esa yanada zalvarlidir.

Xo'sh, bugun oldimizda qanday vazifalar turibdi? Yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirish strategiyasida ushbu vazifalar aniq ko'rsatilgan.

Ertamiz egalariga zamonaviy kasb va chet tillarini o'rgatish tizimini yaratish, ularning intellektual salohiyatini oshirish, ilmiy faoliyatini rag'batlantirish, ijtimoiy himoyasini kuchaytirish va ishsizlik darajasini pasaytirish, farzandlarimiz o'rtasida IT sohasini yanada ommalashtirish va xizmatlar eksportini ko'paytirish, shuningdek, yurtimizda sport bilan professional va doimiy shug'ullanadigan yoshlar ulushini oshirish shular jumlasidandir.

Tabiiyki, bu vazifalar parlament vakillari, jumladan, qo'mitamiz a'zolariga ulkan mas'uliyat yuklaydi. Zotan, yoshlar — jamiyatimizning beqiyos kuchi va taraqqiyot manbai ekan, ular uchun barcha shart-sharoit va qulayliklarni yaratib berishga barchamiz birdek harakat qilishimiz lozim.

**Dilorom TOSHMUHAMEDOVA,**
**Oliy Majlis Senatining**
**Yoshlar, madaniyat va sport**
**masalalari qo'mitasi raisi o'rinbosari.**

---

# PENSIYA TAYINLASHDA DAVLAT XIZMATLARI SIFATI OSHIRILADI

*Ijtimoiy himoya sohasida mamlakatimizda so'nggi yillarda amalga oshirilayotgan islohotlar, avvalo, inson qadrini ulug'lash, manfaatlarini kafolatlashga xizmat qilmoqda. Bunda, ayniqsa, pensiya tizimi takomillashtirilib, raqamlashtirilayotgani, pensiyalar miqdorining muntazam oshirib borilayotgani e'tiborga molik.*

## Ijtimoiy himoya

Davlatimiz rahbarining 2021-yil 4-maydagi "Fuqarolarga davlat pensiyalarini tayinlash jarayonini soddalashtirish hamda pensiya va nafaqalarni yetkazish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori bu boradagi ishlarni yangi bosqichga olib chiqdi. Zero, mazkur hujjat bilan 2022-yil 1-iyundan boshlab, pensiya tayinlashda fuqarolarning ma'lumotlarini elektron bazadan olish tartibi joriy etildi.

Mazkur qaror bugungi kunda davlat pensiyalarini hisoblash uchun zarur ma'lumotlar elektron bazasini shakllantirish, ushbu jarayonni soddalashtirish, fuqarolarning ovoragarchiliklarini bartaraf qilish, pensiya va nafaqalarni yetkazib berish tizimini yanada takomillashtirish, shuningdek, mazkur yo'nalishda sog'lom raqobat muhiti va zamonaviy standartlarni joriy etishga xizmat qilayotir.

Prezidentimizning 2023-yil 31-oktabrdagi "Aholiga pensiya tayinlash bo'yicha ko'rsatiladigan davlat xizmatlari sifatini yanada oshirishga qaratilgan qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qaroriga asosan pensiya tayinlashda davlat xizmatlari sifatini yaxshilash bo'yicha navbatdagi qadam tashlanmoqda.

2022-yil 1-iyunga qadar pensiya tayinlash uchun fuqarolardan 14 ta tashkilotdan 30 dan ortiq turdagi hujjatlar talab etilib, ularni yig'ishga 6 oygacha vaqt sarflangan bo'lsa, bugungi kunda ma'lumotlari elektron bazada mavjud bo'lgan fuqarolar pensiya tayinlash uchun faqat pasport taqdim etish bilan kifoyalanmoqda.

Mazkur hujjatning ahamiyatli tomoni shundaki, u bilan 2024-yil 1-yanvardan fuqarolarga pensiya tayinlash uchun qo'shimcha ravishda Davlat xizmatlari markazlari yoki Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali orqali ham murojaat qilish imkoniyati yaratilyapti.

Fuqarolarga pensiya tayinlanganidan so'ng "Xalq banki" ATBda jamg'argan pensiya pulini olish uchun Pensiya jamg'armasidan qog'oz shaklidagi sertifikat berish tartibi bekor qilinyapti. Bu borada fuqaro Xalq bankidagi shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya hisobvarag'idagi mablag'larini Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali yoki bankning mobil ilovasi orqali olish imkoniyati yaratiladi.

Ushbu qarorga asosan 2025-yil 1-martdan boshlab 60 yoshga yetgan erkaklarga va 55 yoshga to'lgan ayollarga pensiyalar, shu kunning o'zida "avtomatik" tarzda, ya'ni biror-bir turdagi hujjat talab etmagan holda tayinlanadi. Bunda shaxsga oid ma'lumotlar (fuqaroning yoshi, jinsi), ish staji, ish haqi (to'langan ijtimoiy soliq summasi) va oila tarkibi (turmush o'rtog'i va farzandlari) tegishli vazirlik va idoralarning elektron bazalaridan olinadi hamda shu kunning o'zida pensiya "avtomatik" tarzda tayinlangandan so'ng fuqaroning mobil aloqa vositasiga ma'lumot yuboriladi. Natijada fuqarolarga pensiya tayinlash uchun qo'shimcha hujjatlar yig'ish hamda yashaydigan manzildagi Pensiya jamg'armasining hududiy bo'linmasiga murojaat qilish talab etilmaydi.

Fuqaro pensiya yoshiga yetgan bo'lsa, ammo pensiyaga chiqmasdan ish faoliyatini davom ettirish istagida yursa yoki pensiya miqdoridan norozi bo'lsa, "avtomatik" tayinlangan pensiyani to'xtatish huquqi ham qarorda o'z aksini topgan. Shu o'rinda amaldagi qonunchilikka muvofiq, pensiya miqdoridan norozi bo'lgan fuqarolarga, pensiya miqdoriga ta'sir etuvchi qo'shimcha hujjatlarni istalgan vaqtda taqdim qilish huquqi berilganini qayd etish joiz.

Xorijiy davlatlar tajribasiga e'tibor qaratsak, pensiyalarni "avtomatik" tarzda tayinlash tartibi Armaniston, Gruziya, Ozarbayjon va Estoniyada yo'lga qo'yilganligini ko'rishimiz mumkin.

Yurtimizda pensiyalarni "avtomatik" tarzda tayinlash tartibini amaliyotga joriy etish bo'yicha 10 ta banddan iborat "Yo'l xaritasi" tasdiqlanmoqda. Bunda 14 ta vazirlik va idoraning ma'lumotlar bazasi 2025-yil 1-martga qadar xatlovdan o'tkaziladi va pensiya tayinlash uchun zaruriy hujjatlar to'liq raqamlashtiriladi.

Bu yo'nalishdagi sa'y-harakatlar "Ijtimoiy himoya yagona reyestri" axborot tizimini joriy etish bilan boshlab yuborilgan. Bugungi kunda ushbu reyestr tizimiga murojaat qilgan fuqaro haqida 9 ta vazirlik va idoraning elektron ma'lumotlari bazasidan real vaqt rejimida elektron axborot almashinuvi asosida 21 turdagi ma'lumotlar olinmoqda.

Bugun axborot texnologiyalarisiz hech bir tarmoqning rivojini tasavvur etish qiyin. Qaysiki yo'nalishda axborot texnologiyalari faol tatbiq qilindimi, bu fuqarolar hayotida qulayliklar yaratmoqda. Yangi texnologiyalarning pensiya tayinlash va rasmiylashtirish jarayoniga tatbiq etilishi ham, avvalo, fuqarolarimiz manfaatiga xizmat qiladi.

Eslasak, avvallari umr bo'yi ishlab, keksalik gashtini surish davri kelganda yoshi ulug' yurtdoshlarimiz idorama-idora yurib, ko'p sarson-sargardon bo'lardi. Birinchi bosqichdagi islohotlar hujjat yig'ish va qog'ozbozlikka chek qo'ygan bo'lsa, endilikda joriy qilinishi nazarda tutilayotgan o'zgarishlar fuqarolarni ortiqcha ovoragarchiliklardan xalos etish bilan birga, ularda tizimning ochiq va shaffofligiga ishonch hosil qilishiga yordam beradi.

**Muxtorjon HOJIMATOV,**
**Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati.**

---

**Fikr**

Milliy iqtisodiyot:

# TARAQQIYOT ISTIQBOLLARI VA NATIJALAR

*Milliy iqtisodiyotni isloh qilishda tashqi savdo, soliq va moliya siyosatini liberallashtirish, tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash va xususiy mulk daxlsizligini kafolatlash, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini chuqur qayta ishlashni tashkil etish hamda hududlarni jadal rivojlantirishni ta'minlash dolzarb ahamiyatga ega.*

Keyingi yillarda mamlakatimizda bu bo'yicha muhim ta'sirchan choralar ko'rildi. Ayniqsa, savdo sohasini yanada isloh qilish, undagi tartib-qoidalarni soddalashtirish va optimallashtirish, tarif va tarifsiz to'siqlarni olib tashlash, eksport nomenklaturasi hamda geografiyasini kengaytirish borasida muayyan ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, bojxona ma'muriyati sohasida bojxona to'lovlari stavkalari ikki baravar kamaytirildi, 3500 dan ortiq mahsulot turlariga import stavkasi va 1000 dan ortiq turdagi mahsulotlar uchun aksiz solig'i nolga tenglashtirildi.

Shu bilan birga, xavfni boshqarishning avtomatlashtirilgan tizimi joriy qilindi, eksport-import operatsiyalari davomida keraksiz hujjatlarni talab etish tartibi bekor qilindi va "yagona oyna" bojxona axborot tizimiga o'tildi.

Soliqlar — har bir davlat o'z vazifalarini bajarishi uchun foydalanadigan moliyaviy manba sanaladi. Tarixdan ma'lumki, soliq turlarining ko'payishi, soliq bosimining kuchayib borishi davlatning moliyaviy qudratini yuksaltirishga emas, aksincha, tanazzulga yuz tutishiga sabab bo'lgan. Chunki ko'plab asossiz, og'ir soliqlarning joriy qilinishi aholi iqtisodiy faolligini susaytirgan.

Shu nuqtayi nazardan aytganda, yurtimizda soliq siyosati sohasida olib borilayotgan tizimli sa'y-harakatlar e'tiborga molik. Xususan, bugungi kunga kelib, to'lanadigan soliqlar 13 turdan 9 turga qisqartirildi. Soliq organlarining soliq to'lovchining debitorlari hisobidan soliq qarzlarini undirish huquqi bekor qilindi.

Ahamiyatlisi, soliq imtiyozlari va preferensiyalari faqatgina Soliq kodeksiga binoan berilishi amaliyoti joriy etildi. Tadbirkorlar uchun qulay soliq tizimi yaratilib, qo'shilgan qiymat solig'i stavkasi 15 foizdan 12 foizga tushirildi va QQSni qaytarishning tezlashtirilgan tartibiga o'tildi. 2022-yil 1-noyabrdan esa eksportga realizatsiyadan olingan foyda soliqdan to'liq ozod qilindi.

Albatta, soliqlarning kamaytirilishi, soliq imtiyozlarining berilishi tadbirkorlarning o'z faoliyatlarini yanada samarali tashkil qilish va kengaytirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Zero, buning natijasida mablag'lar tadbirkorlik subyektlari hisobida qolib, ularning aylanma mablag'lari oshyapti.

Sir emaski, hozirgi vaqtda mamlakatimiz iqtisodiy taraqqiyotida eksportni rivojlantirish katta o'rin tutadi. Zero, tovar va xizmatlarni ishlab chiqarish va boshqa mamlakatlarga sotish — yurtimizning yanada gullab-yashnashi va aholi turmush tarzining o'sishidagi muhim qadamdir. Shu bois keyingi yillarda ushbu yo'nalishda qator qulayliklar yaratildi. Misol uchun, eksportdan tushgan valyuta tushumini majburiy sotish tartibi barcha eksportchi korxonalar uchun butunlay bekor qilindi. Umumiy qiymati 5 ming AQSH dollaridan ko'p bo'lmagan tovarlarni bojxona deklaratsiyasi taqdim etmasdan O'zbekiston Respublikasidan olib chiqishga ruxsat berildi.

Mahsulotlarni eksportga realizatsiya qilish hajmiga to'g'ri keladigan qismi yuzasidan yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i va yagona soliq to'lovi bo'yicha imtiyozlar taqdim etildi. Eksportchi korxonalarga moliyaviy xizmat ko'rsatuvchi va ularni eksport yo'nalishida zaruriy axborot bilan ta'minlovchi Eksportni rag'batlantirish agentligi faoliyati yo'lga qo'yildi.

Amalga oshirilgan ishlar natijasida joriy yilning o'tgan davrida respublikada 6 ming 31 korxonaning 10 ming 558 ta murojaatiga muvofiq qo'shilgan qiymat solig'idan 15,4 trln. so'm salbiy farq summalari qoplab berildi.

Bundan tashqari, Savdo-sanoat palatasi tomonidan so'nggi davrda jami 600 dan ortiq tadbirkorlik subyektlariga umumiy qiymati 548,7 mln. AQSH dollari miqdoridagi mahsulotlarni xorijiy mamlakatlarga eksport qilishda ko'maklashildi. Buni mamlakatimizda tadbirkorlik subyektlariga yaratilayotgan keng imkoniyatlardan to'laqonli foydalanish natijasi sifatida e'tirof etish mumkin.

Albatta, bajarilgan ishlar diqqatga sazovor. Xo'sh, kelgusida eksport va tashqi savdo yo'nalishida yana qanday chora-tadbirlar ko'zda tutilmoqda?

Alohida qayd etish kerak, ushbu masala davlatimiz rahbarining doimiy e'tiboridadir. Binobarin, Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida "Yangi O'zbekiston — raqobatbardosh mahsulotlar yurti" g'oyasi asosida zarur chora-tadbirlar belgilangan. Qolaversa, mahalliy korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlarni xorijiy davlatlarga chiqarishda ko'maklashish tizimini takomillashtirish hisobiga eksportchi korxonalar sonini oshirish, tovarlarning eksport geografiyasini kengaytirish maqsad qilingan.

O'z navbatida, Prezidentimizning "Tashqi savdo faoliyati ishtirokchilarini qo'llab-quvvatlashning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni yuqorida ko'zda tutilgan vazifalarning bajarilishini ta'minlashda huquqiy asos bo'lmoqda. Chunonchi, mazkur hujjat bilan hozirgi vaqtda mahsulotlarni eksport qilishda transport xarajatlarini qoplash uchun mahalliy korxonalarga subsidiyalar berilmoqda, akkreditatsiya va sertifikatlash bilan bog'liq xarajatlar Eksportni rag'batlantirish agentligi tomonidan qoplanmoqda. Natijada mamlakatimiz eksport geografiyasi ham ortib borayotir.

Muxtasar aytganda, bugungi kunda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar mamlakatimiz iqtisodiyotini yanada taraqqiy ettirish, aholi farovonligini yuksaltirishga, muhimi, yangi ish o'rinlari yaratishga xizmat qiladi. Zero, ushbu tizimni jadal rivojlantirish va yuqori o'sish sur'atlarini ta'minlash davlatimiz siyosatining pirovard maqsadidir.

**Javlonbek ERGASHEV,**
**Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati.**

# AVTOHALOKATLAR: loqaydlik, mas’uliyatsizlik va ayanchli statistika



## Yo‘l-transport hodisalarining oldini olish bo‘yicha ekspertlar nima deydi?

*Statistik ma’lumotlarga ko‘ra, har yili dunyo bo‘yicha 2 million nafardan ortiq insonlar avtohalokat qurboniga aylanmoqda. Yo‘l-transport hodisalari (YTH) natijasida turli tan jarohatlari olib, mayib-majruhga aylanganlar soni esa 20 milliondan ko‘p. Albatta, bu juda achinarli holat.*

*Biz dunyo bo‘yicha raqamlarni keltirdik, ammo mamlakatimizda ham ayni shu yo‘nalishdagi tahlillar ko‘ngilni xira qiladi. Ijtimoiy tarmoqlarda deyarli har kuni bir qancha YTH sodir bo‘layotganini kuzatamiz.*

*Yaqinda Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev raisligida o‘tkazilgan videoselektor yig‘ilishida yo‘llarimizdagi harakat xavfsizligi bilan bog‘liq vaziyat ancha ayanchli ahvolda ekanini, yo‘l-transport hodisalari oqibatida o‘lim va jarohatlanish holatlari ko‘pligini, tegishli rahbarlar bunga loqayd bo‘lib o‘tirganini jiddiy tanqid qildi.*

*Har yili yuzlab odamlar yo‘llardagi baxtsiz hodisalar oqibatida vafot etyapti. Ular orasida bolalar ham borligi qalblarni larzaga solmay qo‘ymaydi. Davlatimiz rahbari mas’ullarning qoniqarsiz faoliyatiga deputatlarimiz befarq bo‘lib o‘tirganini ham afsus bilan qayd etdi.*

*Shuningdek, misol sifatida Xitoy poytaxti Pekin va Rossiya markazi Moskvadek yirik shaharlarda tirbandlik deyarli kuzatilmasligini tilga olib, O‘zbekistonda ham shunga intilish shartligi ko‘rsatib o‘tildi.*

*Umuman, transport vaziri va boshqa mutasaddilarga jamoat transportini rivojlantirish, svetoforlar va yo‘l chiziqlarini o‘rnatish, tirbandlikning oldini olish, poytaxt ko‘chalari va hududlardagi yo‘llarni tartibga solish bo‘yicha qat’iy choralar ko‘rish topshirildi. 2024-yil bu borada jiddiy o‘zgarishlar yili bo‘lishini ta’minlash vazifasi ham qo‘yildi.*

*Topshiriqlar ijrosi bilan go‘zal. Xo‘sh, YTH nega keskin kamaymayapti? Yo‘llardagi harakat xavfsizligi bilan bog‘liq muammolarni bartaraf qilishga mas’ul vazirlik hamda idoralar endilikda ishni qay tartibda tashkil etadi? Umuman, vaziyatni o‘nglash uchun qanday chora-tadbirlar amalga oshiriladi? Bu jarayonda parlament a’zolarining ishtiroki qanaqa bo‘ladi va xalq vakillari nimalarga e’tibor qaratadi?*

*Muxbirimiz shu haqda ayrim mutasaddilar fikrlari bilan qiziqdi.*

### Dolzarb mavzu

**Odiljon TOJIYEV,**
**Oliy Majlis Qonunchilik palatasi Spikeri o‘rinbosari:**



— Yo‘llarda harakat xavfsizligini ta’minlash bugun tobora dolzarbligini namoyon etmoqda. Tan olish kerak, yo‘llardagi ayrim mudhish voqealar, baxtsiz hodisalar hayotimiz voqeligiga aylanib ulgurdi. Ommaviy axborot vositalarida tarqalayotgan eng ko‘p xabar yo‘l-transport hodisalari sodir bo‘lganligi bilan bog‘liq ekanligi yo‘l harakati xavfsizligini ta’minlash borasida bajarayotgan ishlarimiz, qabul qilingan qonunlarimizni qayta ko‘rib chiqishimiz zarurligini ko‘rsatadi.

Aslida uzog‘imizni yaqinlashtirish maqsadida kashf etilgan avtomobil ayrim insonlarning nomaqbul harakati tufayli “harakatlanuvchi bomba”ga aylangani rost. Har oyda shaharlararo, viloyatlararo yo‘llardan o‘tib saylovchilar bilan uchrashuvlarga borganda, ba’zan yo‘l holati yomonligi va infratuzilmasi oqilona tashkil etilmagani oqibatida ham falokatlar soni oshib borayotganiga guvoh bo‘lamiz. To‘g‘ri, keyingi yillarda xalqaro standartlarga muvofiq yo‘l-transport infratuzilmasini yaxshilash, avtomobil yo‘llarini rekonstruksiya qilish, harakat qulayligi va xavfsizligini yaxshilash borasida ko‘plab loyihalar amalga oshirildi. Ayni paytda hali bu borada oldinda qiladigan ishlarimiz ko‘pligi ham ayni haqiqat.

Biz, odatda, yo‘llarning holatiga qarab, mahalliy rahbarlarning salohiyati, tashabbuskorligi, intilishi qay darajadaligiga baho berishga o‘rganib qolganmiz. Qaysi hududdagi yo‘llar tekis, ravon, haydovchi va piyoda uchun qulay bo‘lsa, shu hududdagi mahalliy rahbarlarning salohiyati, ishchanlik darajasi bo‘yicha birlamchi xulosaga ega bo‘lamiz. Bu qanchalik to‘g‘ri yoki noto‘g‘riligini bilmadim, ammo yo‘l xavfsizligini ta’minlashga barchamiz mas’ul ekanligimiz aniq.

Ma’lumki, biz, Qonunchilik palatasi deputatlari Hukumat vakillaridan muntazam ravishda Davlat byudjeti va davlat maqsadli jamg‘armalari mablag‘lari sarflanishi to‘g‘risidagi hisobotni qabul qilamiz, tasdiqlaymiz. Hisobotda avtomobil yo‘llari, ko‘priklar hamda yo‘lo‘tkazgichlarni qurish va rekonstruksiyalash, shuningdek, obyektlarni jihozlash hamda texnikalar xarid qilish ishlari Davlat byudjeti mablag‘lari hisobidan moliyalashtirilishi haqida batafsil ma’lumot aks ettiriladi. Ammo byudjet mablag‘lari bir vaqtning o‘zida barcha yo‘lni ta’mirlashga yetmasligi tabiiy. Shu bois tadbirkorlik subyektlarining sarmoyalarini jalb qilgan holda “pullik” avtomagistral yo‘llarni ishga tushirish ishlarini jadallashtirish vaqti keldi.

Bilamizki, muayyan miqdordagi mablag‘ hisobiga xavfsiz, qulay yo‘llarni qurgan tadbirkor doimo yo‘lning sifati, tarkibiy tuzilishini bir maromda saqlashdan manfaatdor bo‘ladi. Natijada haydovchi, piyoda, yo‘lovchilarning xavfsizligi ta’minlanishi ehtimoli bir necha karra ortadi va bir paytning o‘zida Davlat byudjetidan sarflanadigan xarajatlarning bir qismi tejab qolinadi. Bundan anglashiladiki, bunday yondashuv yo‘l harakati ishtirokchilari xavfsizligini ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Alohida aytish kerak, yo‘l harakati ishtirokchilari xavfsizligini ta’minlash, haqiqatan ham, dolzarb bo‘lib, bu masala Prezidentimizning doimiy nazoratida. Yaqinda o‘tkazilgan videoselektor yig‘ilishida davlatimiz rahbari bu bo‘yicha bir qator vazifalarni belgilab berdi. Albatta, uning ijrosida barchamiz mas’ullik bilan yondashishimiz lozim.

Ayniqsa, biz, deputatlar, bu borada parlament nazoratining ta’sirchan mexanizmlaridan foydalanishimiz maqsadga muvofiq. Chunki aynan ushbu mexanizm joylarda qonunlarning qanday ishlayotganini namoyon etadi. Zarur bo‘lsa, yangidan-yangi qonunlarni ishlab chiqish hamda qabul qilishni taqozo etadi. Zero, qonun xalqchil, hayotiy va barcha tomon uchun adolatli bo‘lsa, yechimini kutayotgan masalalar hal bo‘lishiga muhim qadam qo‘yiladi. Chunonchi, Qonunchilik palatasida qizg‘in bahs-munozaralar asosida qabul qilinib, Senatda yaqinda ma’qullangan “Yo‘l harakati to‘g‘risida”gi qonun ham yo‘l harakatini tashkil etishning bugungi kun talablariga javob berishi bilan ahamiyatli. Uning imzolanishi esa pirovardida mutasaddi idoralar mas’uliyatini kuchaytirib, sohada samarali jamoatchilik nazoratini o‘rnatishga xizmat qiladi.

**Murodjon OBIDOV,**
**Transport vazirligi huzuridagi loyiha ofisi rahbari:**



— Yo‘l-transport hodisalarining sodir bo‘lishiga bir qator sabablar bor, albatta. Bunday baxtsiz holatlarning oldini olishda yo‘llarning sozligi, ularning xavfsizlik talablariga to‘liq javob berishi juda muhim.

Ayniqsa, chorrahalarda, xavfli burilishlar, svetoforlarning doimiy ishlashi, piyodalar o‘tish yo‘laklari, qarama-qarshi yo‘nalishlar hamda ko‘chalarning boshqa qismlarida YTH yuz berishiga olib kelishi mumkin bo‘lgan holatlarni to‘liq bartaraf etishimiz lozim.

Bilasizmi, “avtoavariya”larning oldini olishda xalqaro tajribalarni ham qo‘llashimiz zarurati yaqqol ko‘rinib turibdi. Bu boradagi ishlarni butunlay ilmiy va amaliy jihatdan qaytadan ko‘rib chiqish talab etilmoqda.

Davlatimiz rahbari raisligida o‘tgan yig‘ilishda ushbu yo‘nalishdagi ishlar tanqidiy ko‘rib chiqilib, mutasaddilarga muammolarga chek qo‘yish bilan bog‘liq aniq topshiriqlar berildi. Shundan kelib chiqib, bu ishlarga chuqur mas’uliyat bilan yondashib, kamchiliklarni bosqichma-bosqich hal etish choralarini ko‘ramiz, albatta.

O‘tgan davr davomida Transport vazirligi huzuridagi Avtomobil yo‘llari qo‘mitasi tomonidan Prezidentimizning “2022 — 2026-yillar davomida amalga oshirilishi mo‘ljallangan “Xavfsiz va ravon yo‘l” umummilliy dasturini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarori ijrosi yuzasidan bir qator ishlar amalga oshirildi.

Ushbu dastur doirasida yo‘l infratuzilmasini kompleks takomillashtirish maqsadida 15 ming 620 donadan ortiq yangi yo‘l belgilari o‘rnatildi. Yaroqsiz holga kelgan salkam 36 ming yo‘l belgilari almashtirildi. 6,5 mingdan ziyod maktablar oldida tezlikni cheklovchi yo‘l belgilari joylashtirildi. 157 ta yangi svetofor obyekti qurilib, 85 ta svetofor obyekti rekonstruksiya qilindi. Saksonga yaqin yangi piyodalar svetoforlari obyektlari qurildi. Yigirmaga yaqini rekonstruksiya qilindi. 10 km2 yo‘l yotiq chiziqlari chizildi. Aholi punktlaridagi 269 km. yo‘llar sun’iy yoritildi, piyodalar uchun trotuar va shuncha masofali velosiped yo‘laklari qurildi.

Qolaversa, 90 km.dan ortiq aholi punktlaridagi kesib o‘tish belgilanmagan joylarda yo‘lning qatnov qismini piyodalar harakatidan cheklovchi vositalar (panjaralar), shuningdek, qarama-qarshi yo‘nalishlarni ajratib turuvchi 245 km. to‘siq (BDO-5) va temir to‘siqlar o‘rnatildi. 35 ta chorrahaning geometrik parametrlarini o‘zgartirish yo‘li bilan ularning o‘tkazuvchanlik qobiliyati oshirildi.

Albatta, ushbu yo‘nalishdagi ishlar o‘z yo‘liga. Ammo asosiy maqsadimiz YTHning oldini olishga qaratilishi va bu borada yanada ko‘proq chora-tadbirlarni belgilab, shu asosda ishlashimiz darkor. Xorijiy tajribalar tahlili asosida faoliyatimizni yanada takomillashtiramiz.

Ayniqsa, svetoforlar va yo‘l chiziqlarini o‘rnatish, tirbandlikning oldini olish, poytaxt ko‘chalari va hududlardagi yo‘llarni tartibga solish bo‘yicha qat’iy choralar ko‘ramiz. O‘ylaymanki, sohada qilinadigan tadbirlar kelgusi yilda tizimda jiddiy o‘zgarishlarni ta’minlab beradi.

**Mashrab RAZZOQOV,**
**Ichki ishlar vazirligi Jamoat xavfsizligi departamentining Yo‘l harakati xavfsizligi xizmati, Yo‘l harakati xavfsizligi muammolarini o‘rganish markazi boshlig‘i, polkovnik:**



— Avtohalokatlar qasddan sodir etilmaydi. Aksincha, bunga haydovchilarning ehtiyotsizliklari, zamon talablariga javob bermaydigan yo‘l infratuzilmasi, piyodalar va velosipedchilarning xavfsiz harakatlanishi uchun shart-sharoitlar yaratilmagani, yo‘l harakati qatnashchilarining huquqiy madaniyati darajasining yetarli emasligi hamda boshqa bir qator omillar sabab bo‘lishi mumkin.

Oxirgi yillarda mamlakatimizda yo‘l-transport hodisalarining oldini olish borasida ko‘plab chora-tadbirlar ko‘rilyapti. Ammo shunga qaramay, ijobiy o‘zgarishlar kam. Mavjud vaziyat tahlili ham shunga ishora bermoqda.

Prezidentimiz videoselektor yig‘ilishida belgilab bergan vazifalar asosida bu yo‘nalishdagi ishlarimizni qayta ko‘rib chiqib, zarur chora-tadbirlarni belgilab oldik. Jumladan, yil yakuniga qadar respublikadagi umumiy va o‘lim bilan bog‘liq YTHni kamida 15 foizga qisqartirish bo‘yicha “Minus-15 dasturi” tasdiqlandi.

Birgina eng ko‘p avtomobillar ulushiga ega Toshkent shahrida piyodalar uchun xavfsiz harakatlanish sharoitini yaratish hamda yo‘l infratuzilmasini yaxshilash borasida “Zarbdor ikki oylik” tadbiri e’lon qilindi.

Tadbir davomida amalga oshirilayotgan ishlarni muvofiqlashtirish va kunlik tahlilini yuritish maqsadida Ichki ishlar vazirligi Jamoat xavfsizligi departamentining Yo‘l harakati xavfsizligi xizmatida “Tezkor shtab” faoliyati yo‘lga qo‘yildi.

Shuningdek, poytaxt tumanlarida tashkil qilingan 12 ta mobil brigadaga jami 146 nafar xodim va ishchi-xizmatchi jalb etildi. Belgilangan vazifalar ijrosini o‘z vaqtida va sifatli ta’minlash maqsadida Toshkent shahrida tartibga solinmagan piyodalar o‘tish joylariga svetofor obyektlarini o‘rnatish bo‘yicha aniq manzillar hamda muddatlar ko‘rsatilgan tarmoq jadvali tasdiqlandi.

Jadvalga asosan joriy yilning yakuniga qadar Toshkent shahridagi tartibga solinmagan jami 250 ta piyodalar o‘tish joyiga chaqiruv tugmali svetoforlar o‘rnatilishi belgilangan.

Shuni ham aytish kerakki, avtomagistrallar va avtomobil yo‘llarining zamonaviy raqamli texnologiyalar bilan to‘liq qamrab olinmagani, yo‘l belgilarining to‘liq o‘rnatilmagani avtomobilda harakatlanishda qiyinchiliklarni paydo qilmoqda. Qolaversa, IT mutaxassislari va transport muhandislari kabi kadrlar yetishmaydi, jamoat transporti jozibadorligini oshirish, tirbandliklarning oldini olish uchun zarur sharoitlar yaratish ham oldimizdagi dolzarb masalalardan biri, desak, to‘g‘ri bo‘ladi.

Albatta, yuqoridagi kabi muammolar yechimi ustida jiddiy ishlayapmiz. Bu, o‘z navbatida, yurtimizda yo‘l-transport hodisalarining kamayishiga yordam berishi, shubhasiz.

**Salomat NIYOZOVA,**
**Toshkent davlat yuridik universiteti professori, yuridik fanlar doktori:**



— Prezidentimiz juda kuyunchaklik bilan yo‘llarimizdagi harakat xavfsizligi bilan bog‘liq vaziyat o‘ta ayanchli ahvolda ekanini ta’kidlab, bu borada mutasaddilarga zarur ko‘rsatmalar berdi, o‘tkir savollarni qo‘ydi. Bu bejiz emas. Boisi har bir YTHda inson hayoti turibdi. Aslida bu muammoga yuzaki emas, o‘ta mas’uliyat bilan yondashish zarurligini videoselektor yig‘ilishida keltirilgan faktlar ham tasdiqlaydi.

Bilasizmi, bunday sharoitda ba’zi mutaxassis va ekspertlar YTHning oldini olish uchun jazoni yanada kuchaytirishni taklif qilayotir. Biroq bu bilan asosiy maqsadga erishish mushkul.

Demoqchimanki, barcha yo‘l harakati qatnashchilarida yuksak huquqiy madaniyatni shakllantirmasdan turib, yo‘l-transport hodisalarining oldini olib bo‘lmaydi.

Bundan tashqari, yo‘l infratuzilmasini harakat xavfsizligini ta’minlashning zamonaviy talablariga to‘liq muvofiqlashtirish, ushbu sohadagi qoidabuzarliklarning barvaqt profilaktikasiga yo‘naltirilgan samarali tizimni yo‘lga qo‘yish, shuningdek, inson omilini istisno qiluvchi raqamli texnologiyalarni keng joriy etish lozim.

Tan olish kerak, yo‘l-transport hodisalaridan ko‘p hollarda maktab o‘quvchilari jabr ko‘rmoqda. Shundan kelib chiqib, maktablarga o‘quvchilarning kelib-ketishlari uchun maxsus avtobuslar harakatini bosqichma-bosqich yo‘lga qo‘yish, ta’lim muassasalarida “Yo‘l harakati xavfsizligi qoidalari” bilan bog‘liq alohida fan joriy etilishi ham maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Yo‘l harakati qoidalari aholi o‘rtasida hanuzgacha ta’sirchan va samarali targ‘ib qilinmasligi ham bunday salbiy holatlarning kelib chiqishiga sabab bo‘layotir. Bu esa ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlarda fuqarolarning bu boradagi madaniyatini yuksaltirishga qaratilgan materiallar yetarli darajada berib borilishi lozimligini taqozo etadi.

Qisqacha aytganda, hali oldimizda qilinishi kerak bo‘lgan ishlar talaygina. Vazifalar aniq. Muhimi, ularni o‘z vaqtida, sifatli amalga oshirish kerak. Shunda yo‘l-transport hodisalarining oldini olishga hissa qo‘shgan bo‘lamiz.

**Rahim SHERQULOV**
**(“Xalq so‘zi”) yozib oldi.**

Adliya tizimi:

# KECHA VA BUGUN



*Yaqinda taniqli huquqshunos, boy tajribaga ega yurist, prokuratura, sud va Adliya vazirligi faxriysi Ermuhammad Shermatov qalamiga mansub “O‘tmishdan kelgan adolatli nidolar” nomli kitob chop etildi. Ushbu yangi asar O‘zbekiston adliya organlarining o‘tmishi, kechasi va buguniga bag‘ishlangani bois nafaqat soha vakillari, balki keng kitobxonlar ommasida katta qiziqish uyg‘otishi, shubhasiz.*

### Mutolaa

Sababi unda bir asrdan ortiq davr qamrab olingan bo‘lib, Adliya vazirligining shakllanish va rivojlanish bosqichlari huquqni muhofaza qiluvchi organlar, qolaversa, o‘zbek davlatchiligi va o‘zbek xalqi tarixidagi eng murakkab voqea-hodisalar bilan uyg‘unlikda ochib berilgan. Bu muallifning eng katta yutug‘i bo‘lgan, desak, mubolag‘a emas.

Davlat ijroiya hokimiyati organlari tizimida O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining alohida o‘rni bor. U mamlakatning otaxon va eng tajribali tuzilmalaridan biri sifatida o‘zining 100-yillik tarixi davomida murakkab, shu bilan birga, tahlikali voqealarga boy yo‘lni bosib o‘tdi. Muallif haqli ravishda e’tirof etganidek, XX asrning eng fojiali voqealari ayni shu davrga to‘g‘ri kelgani haqiqat.

Kitobda XX-XXI asr boshlariga oid noyob arxiv materiallari, hujjatli, adabiy va boshqa yangi manbalar jamlangani uning ilmiy ahamiyatini oshirgan. Muallif Turkiston adliya xalq komissarlari hamda O‘zbekiston adliya vazirlarining taqdirini o‘rganish maqsadida turli davlat arxivlarida ishlaganida, o‘zbek yuristlari mavzusi uning diqqat-e’tiborini tortib, natijada 1917-yildan 2022-yilgacha shu tizimda xizmat qilgan rahbar xodimlar haqidagi qimmatli ma’lumotlarni o‘rganishga muvaffaq bo‘lgan. Pirovardida ilk bor yaxlit kitob holida keng jamoatchilikka taqdim etdi.

Kitob ikki bobdan iborat bo‘lib, birinchisida vazirlik hayoti bilan bog‘liq eng muhim voqealar, mas’ul xodimlar faoliyati atroflicha yoritilgan. Ikkinchisida esa o‘tgan asrning fojiali voqealari qalamga olingan. Millat oydinlarining milliy davlatchilikni tuzish, adolat va qonun ustuvorligini ta’minlash yo‘lidagi mardonavor ishlari mahorat bilan ochib berilgan.

E’tiborlisi, kitob vazirlik hamda uning tizimidagi idoralar rahbarlarining hayotnomalari bo‘lib qolmagan. Chigal taqdirlar, ibratli voqealar, qimmatli ma’lumotlar kitob mazmun-mundarijasini yanada boyitgan. Masalan, Xadicha Sulaymonova haqida hikoya qilinganida tariximizning murakkab davrida “xalq dushmani” bo‘lganlikda ayblanib otilgan, suyaklari Sibir konlarida chiritilgan vatandoshlarimizning oqlanishidagi buyuk xizmatlari o‘zgacha hayajon bilan qalamga olingan.

Binobarin, tarix — bu o‘tmishdan porloq kelajak sari yonib turgan chiroqdir. Shu ma’noda, adliya idoralari, jumladan, Adliya vazirligining yorqin kelajagini, rivojlanish istiqbollarini chin ma’noda ko‘rish uchun, albatta, ushbu kitobni diqqat bilan o‘qib chiqish kerak. Muallifga, shuningdek, ushbu kitobning materiallarini to‘plash va nashr qilishda ishtirok etgan barcha jonkuyar insonlarga samimiy minnatdorlik bildiraman.

**Anvar HAMROYEV,**
**yuridik fanlar doktori, professor.**

REKLAMA

«O‘zbekiston pochtasi» AJ aksiyadorlari diqqatiga

HURMATLI AKSIYADORLAR!

“Xalq so‘zi” gazetasining 2023-yil 1-noyabrdagi 232 (8575)-sonida “O‘zbekiston pochtasi” aksiyadorlik jamiyati aksiyadorlarining 2023-yil 23-noyabr kuni soat 11:00 da masofadan turib elektron ovoz berish tizimi www.evote.uz orqali o‘tkazilishi to‘g‘risidagi xabarnomada e’lon qilingan kun tartibi quyidagicha o‘qilsin:

Yig‘ilish kun tartibi:

1. “O‘zbekiston pochtasi” AJ aksiyadorlarining navbatdan tashqari umumiy yig‘ilishi reglamentini tasdiqlash;
2. Korporativ boshqaruv qoidalari tavsiyalariga rioya etish majburiyatini qabul qilish to‘g‘risida;
3. “O‘zbekiston pochtasi” AJ bosh direktori vazifasini bajaruvchi A. Fayzullayevning lavozimini bosh direktorga o‘zgartirish to‘g‘risida.

“O‘zbekiston pochtasi” AJ Kuzatuv kengashi.

Xalq so‘zi
Narodnoe slovo

MUASSISLAR:
O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Kengashi
O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashi

Bosh muharrir O‘tkir RAHMAT

2020-yil 25-martda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 0001-raqam bilan ro‘yxatga olingan. Nashr indeksi — 229. Buyurtma G 1141.32 572 nusxada bosildi. Hajmi — 2 taboq. Ofset usulida bosilgan. Qog‘oz bichimi A-2. Bahosi kelishilgan narxda.

Gazetamiz haqidagi ma’lumotlarni yuklab olish uchun QR-kodini telefoningiz orqali skaner qiling.

TELEFONLAR:
Devonxona 71-259-74-51; kotibiyat 71-259-74-53;
e’lonlar 71-259-74-55.

ISSN 2010-8788

Tahririyatga kelgan qo‘lyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.

Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.

Gazeta tahririyat kompyuter markazida terildi hamda operator A. Ismailov tomonidan sahifalandi.

Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli chop etilishiga “Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi mas’ul. Bosmaxona telefoni: 71-233-11-07.

MANZILIMIZ:
100066,
Toshkent shahri,
Islom Karimov ko‘chasi, 55-uy.
Navbatchi muharrir R. Sherqulov.
Musahhih S. Islomov.

“Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi. Korxona manzili: Buyuk Turon ko’chasi, 41. O‘zA yakuni — 22.58 Topshirildi — 00.40 1 2 3 4 5 6